

SHAXS PSIXODINAMIKASI: TEMPERAMENT VA XARAKTERNING RIVOJLANISH OMILLARI

Uroqova Diyora Sherzod qizi

Tojiboyev Marat N

Chirchiq Davlat Universiteti 1-kurs talabasi

diyorauroqova27@gmail.com

+998990860742

Annotatsiya: Ushbu maqolada temperament va xarakter shaxsning ichki psixologik konfiguratsiyasi sifatida yangicha talqinda izohlanadi. Tadqiqotda temperament tug'ma energiya oqimi, xarakter esa ushbu energiyaning hayot davomida shakllanadigan yo'nalishi sifatida qaraladi. Shaxsning o'ziga xosligini belgilovchi bu ikki qatlamning o'zaro ta'siri jarayon sifatida yoritilib, insonning ichki ritmi va irodaviy qiyofasi qanday uyg'unlikda namoyon bo'lishi haqida konseptual yondashuvlar taklifetiladi. Maqola temperamentning barqaror biologik asoslari, xarakterning esa tajriba, muhit va ongli tanlov natijasida paydo bo'ladigan dinamik tuzilma ekanini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv shaxs psixologiyasini yangi ko'lamda anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Temperament, Xarakter, Xolerik, Melanholik, Sangvinik, Flegmatik, Qobiliyat, Faollik, Moslashuvchanlik, Sabr-toqat.

ПСИХОДИНАМИКА ЛИЧНОСТИ: ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТЕМПЕРАМЕНТА И ХАРАКТЕРА.

Аннотация: В статье представлена новая трактовка темперамента и характера как внутренней психологической конфигурации человека. В исследовании темперамент рассматривается как врождённый энергетический поток, а характер – как направление этой энергии, формирующееся на протяжении жизни. Взаимодействие этих двух слоёв, определяющих идентичность человека, рассматривается как процесс, и предлагаются концептуальные подходы, объясняющие, как гармонично проявляются внутренний ритм и волевой образ личности. В статье показано, что темперамент имеет устойчивые биологические основы, а характер – это динамическая структура, возникающая в результате опыта, среды и осознанного выбора. Такой подход позволяет по-новому понять психологию человека.

Ключевые слова: Темперамент, Характер, Холерик, Меланхолик, Сангвиник, Флегматик, Способности, Активность, Адаптивность, Терпение.

PSYCHODYNAMICS OF PERSONALITY: FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF TEMPERAMENT AND CHARACTER.

Abstract: *This article presents a new interpretation of temperament and character as the internal psychological configuration of a person. The study considers temperament as an innate energy flow, and character as the direction of this energy formed throughout life. The interaction of these two layers, which determine the identity of a person, is highlighted as a process, and conceptual approaches are proposed to explain how the internal rhythm and volitional image of a person are harmoniously manifested. The article shows that temperament has stable biological foundations, and character is a dynamic structure that arises as a result of experience, environment, and conscious choice. This approach allows us to understand the psychology of a person in a new way.*

Key words: *Temperament, Character, Choleric, Melancholic, Sanguine, Phlegmatic, Ability, Activity, Adaptability, Patience.*

Jamiyat hayotidagi uzluksiz o'zgarishlar natijasida psixologiya bir nechta yo'nalishlarga ajralib bordi. Ulardan biri — shaxs psixologiyasi, u insonning individual jihatlari: xarakteri, temperamenti, qobiliyati, xulq-atvori va kasb-hunarga moyilligini o'rganadi. Inson ruhiy olami murakkab ichki jarayonlardan iborat bo'lib, har bir kechinma boshqa bir hissiy yoki tafakkur unsuri bilan bog'lanib ketadi. Shaxsning ruhiy hayotida tashqi muhitdan olinadigan taassurotlar, o'tmish xotiralari, kelajak haqidagi fikrlar, orzu-umidlar, istaklar, maqsadlar, muammolar, his-tuyg'ular va iroda bilan bog'liq sifatlar uzluksiz tarzda bir-birini almashib turadi. Shu tarzda insonning ruhiy qiyofasi shakllanadi: uning jarayonlari, sur'ati, mazmuni, ko'lami, xususiyati va namoyon bo'lish mexanizmi har bir shaxsda o'ziga xos bo'ladi. Shu sababli odamlar turli hayotiy holatlarga, tabiat va jamiyatdagi voqealarga, stress yoki quvonchga, yengil yoki qiyin vaziyatlarga turlicha munosabat bildiradi. Har bir insonning reaksiyasi uning temperamentiga bog'liq bo'lgan dinamika bilan belgilanadi. Psixologiyada temperament deganda shaxsning individual dinamik xususiyatlari tushuniladi. Bu sifatlar o'rtasidagi tabiiy farqlarni o'rganish va ularni ajratib ko'rsatish temperament tiplari haqidagi ilmiy qarashlarning shakllanishiga olib kelgan.

Temperament — bu shaxsning ruhiy jarayonlari qanday tezlikda, qaysi sur'atda va qanday kuch bilan namoyon bo'lishini belgilovchi tug'ma psixologik xususiyatlar majmuidir. U insonning hissiy reaksiyasi qanchalik tez uyg'onishi, holatlarning qancha

vaqt saqlanishi, xatti-harakatlarining qaysi darajada barqaror bo‘lishi kabi dinamik belgilarni o‘z ichiga oladi. Temperament shaxsning nima qilishidan ko‘ra, qanday qilib qilishi bilan farqlanadi. Insonning temperamentiga asosan nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligi ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun temperament biologik asosga ega bo‘lib, u tug‘ilishdan boshlab mavjud bo‘ladi va hayot davomida deyarli o‘zgarmaydi. Ammo shaxsning xulq-atvori, madaniy darajasi va tarbiyasi bu xususiyatlarning qanday namoyon bo‘lishini boshqarishi mumkin. Temperament turli hayotiy vaziyatlarda insonning emotsional barqarorligi, tashqi ta’sirlarga sezuvchanligi, ish sur’ati, irodaviy harakatlar tezligi kabi jihatlarda yaqqol ko‘rinadi. Masalan, ba’zi odamlar voqealarga tez javob qaytaradi, boshqalari esa sekin va vazmin munosabat bildiradi; kimdir hissiyotlarini kuchli namoyon etsa, boshqasi sezilarli darajada sokin bo‘ladi. Psixologiya fanida temperamentning to‘rt asosiy tipi ajratiladi: xolerik, sangvinik, flegmatik va melanholik. Bu tiplarda odamlarning reaksiya kuchi, emotsional holati va xatti-harakati dinamikasi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Biroq har bir inson faqat bir tipga to‘liq mos kelishi shart emas — ko‘pchilikda bir nechta tip xususiyatlari aralash holatda uchraydi. Temperamentning o‘rganilishi shaxs psixologiyasini chuqur anglashga, ta’lim jarayonida individual yondashuvni to‘g‘ri tanlashga, kasb tanlashda shaxs imkoniyatlarini baholashga va insonlar bilan samarali muloqot qilishga yordam beradi. Shunday qilib, temperament — shaxsning tug‘ma psixologik poydevori bo‘lib, uning ruhiy jarayonlarining tabiiy ritmi va uslubini belgilab beradi. Psixologiyada temperamentga talluqli individual dinamik xususiyatlar o‘rtasida muayyan darajada tafovut mavjudligi alohida ta’kidlanadi, ular orasidagi farqlarni ajratib ko‘rsatish maqsadida quyidagicha belgilar kiritiladi va o‘ziga xos tarzda tavsiflab beriladi:

1. Favqulotda temperamentning bir xil xususiyatlari motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o‘laroq, aynan shu shaxsning o‘zida, uning turli faoliyatlarida, muomalasida ifodalanadi.
2. Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taaluqli bo‘lganligi tufayli inson hayoti va faoliyatining davomida yoki uning ma’lum bir bo‘lagida barqaror, o‘zgarmas va mustahkamdir.
3. Yakkahol shaxsga dahldor temperamentning turli xususiyatlari o‘zaro bir-biri bilan g‘ayriqonuniy ravishda birlashgan bo‘lmasdan, balki ular o‘zaro bir-biri bilan muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o‘ziga xos tuzilmani vujudga keltiradi.

Temperamentning fiziologik asoslari insonning nerv tizimi qanday ishlashi, qanchalik kuchli, muvozanatli va tezkor ekanligi bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayonlarning markazida oliy nerv faoliyati, xususan, bosh miya po‘stlog‘i va po‘stloq osti tuzilmalarining

o'zaro ta'siri turadi. Shuning uchun temperament tug'ma biologik poydevorga ega bo'lib, asosan organizmning irsiy xususiyatlariga tayangan holda shakllanadi. Temperamentning asosiy komponentlari nasl orqali uzatiladi. Irsiy omillar nerv tolalarining yetilish darajasi, miya strukturalarining faoliyati va neyrotransmitterlar muvozanatini belgilaydi. Aynan shu biologik mexanizmlar temperament tiplari orasidagi tug'ma farqlarni yuzaga keltiradi. Demak, temperamentning fiziologik poydevori — bu nerv tizimining tabiiy xususiyatlari: qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari, ularning kuchi, muvozanati va harakatchanligi. Bu jarayonlar tug'ma bo'lgani uchun temperament ham barqaror va deyarli o'zgarmas bo'ladi. Shu bois temperament shaxsning ruhiy jarayonlarining biologik ritmini belgilab, uning xatti-harakati qanday sur'atda namoyon bo'lishini aniqlaydi. Temperament haqidagi eng qadimgi ilmiy qarashlar yunon tabibi Gippokrat nomi bilan bog'liq. U inson tabiatidagi farqlarni tushuntirish uchun organizmda mavjud deb hisoblangan to'rt xil suyuqlik muvozanati haqidagi ta'limotni ilgari surgan. Gippokratga ko'ra, inson tanasidagi har bir suyuqlikning ko'pligi yoki kamligi shaxsning kayfiyati, xulqi va ruhiy holatini belgilaydi. Uning fikricha, organizmdagi suyuqliklar tabiiy muvozanatda bo'lsa, inson sog'lom, barqaror va faol bo'ladi; muvozanat buzilsa — xarakter va ruhiy jarayonlarda o'zgarishlar yuz beradi. Gippokrat quyidagi to'rt suyuqlik (g'ilti)ni ajratgan: 1. Qon. Qonning ustunligi shaxsni quvnoq, shodiyona, faol va tashabbuskor qiladi. Bunday odamlar tez kirishimli, ijtimoiy, tetik va optimistik bo'ladi. Keyinchalik bu tip sangvinik temperament sifatida shakllangan. 2. Safro (xolets). Safroning ortiqqligi tez jahlli, keskin harakat qiluvchi, qat'iy va energiyaga boy shaxslar bilan bog'langan. Ular tashabbuskor, ba'zida esa keskin va murosasiz bo'lishi mumkin. Bu tip keyinchalik xolerik temperament deb atalgan. 3. Qora o't. Qora o'tning ko'pligi fikrchan, sokin, o'ziga tortiq bo'lgan, mulohazali va nozik hisli odamlarni shakllantiradi. Ular sezgir, chuqur o'ylovchi, ba'zan pessimist bo'lishi mumkin. Bu keyinchalik melancholik temperamentning fiziologik asosiga aylangan. 4. Balg'am. Balg'amning ustunligi vazmin, barqaror, sekin, hissiyotlarini ochiq namoyon qilmaydigan shaxslar xarakterini belgilaydi. Bunday insonlar mulohazali, sabrli va osoyishta bo'ladi. Ular flegmatik temperamentni tashkil etadi.

Gippokrat ta'limotining ahamiyati. Gippokratning ushbu qarashlari bugungi kunda ilmiy jihatdan to'liq tasdiqlanmagan bo'lsa-da, uning temperamentni tasniflashga uringani juda muhim tarixiy qadamlardan biri bo'ldi. U birinchi bo'lib: insonlar o'rtasidagi psixologik farqlarning tabiiy asosini tushuntirmoqchi bo'ldi, shaxsni to'rt temperament tipiga ajratdi, temperamentning barqarorligi va tug'maligiga e'tibor qaratdi. Keyinchalik Galen, Pavlov va boshqa olimlar bu g'oyalarni rivojlantirib, temperament fiziologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslab berdilar.

XX asrning mashhur rus fiziologi Ivan Petrovich Pavlov temperamentning ilmiy asoslarini chuqur o'rgangan va uning fiziologik mexanizmlarini aniq tushuntirib bergan olimlardan biridir. Pavlovning tadqiqotlari temperamentni oliy nerv faoliyati xususiyatlari bilan bog'lash orqali bu tushunchaga ilmiy asos yaratdi. Pavlovga ko'ra, temperament odamning nerv jarayonlari — qo'zg'alish va tormozlanishning kuchi, muvozanati va harakatchanligi bilan belgilanadi. Bu jarayonlar bosh miya po'stlog'ida sodir bo'lib, shaxsning psixik faoliyatida individual farqlarni yuzaga chiqaradi. Pavlov yuqoridagi uchta nerv tizimi xususiyatiga asoslanib, temperamentning to'rt tipini ilmiy asoslab bergan. Ularning har biri Gippokratning qadimgi tasnifi bilan mos keladi: 1. Kuchli, muvozanatli, harakatchan — Sangvinik, tez moslashadi, faol, quvnoq, muloqotga kirishuvchan, tez fikrlaydi va harakat qiladi. 2. Kuchli, muvozanatli, harakatsiz — Flegmatik, Sokinkon, vazmin, barqaror ish sur'atiga ega, tez hayajonlanmaydi, ishni asta-sekin, sifatli bajaradi. 3. Kuchli, muvozanatsiz — Xolerik. Tez qo'zg'aladi, kuchli emosiyalarga ega, energetik va tashabbuskor, impulsiv bo'lishi mumkin, Kayfiyati tez o'zgaradi. 4. Zaif nerv tizimi — Melancholik. Tez charchaydi, emosional sezgir, kamgap va introvertga moyil, stressga chidamliligi past.

Pavlov birinchi bo'lib temperamentni fan asosida tushuntirdi. Uning ishlari quyidagi jihatlar bilan ahamiyatli: Temperamentning fiziologik asoslari aniq ilmiy tajribalar bilan isbotlandi. Nerv tizimidagi jarayonlar psixik xususiyatlarga bog'landi. Temperament tiplari ilmiy tasnifga tayangan holda asoslab berildi. Uning qarashlari zamonaviy psixologiya, pedagogika va psixiatriya uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Sangvinik – quvnoq, chaqqon, tirishqoq va ta'sirchan odam. U tevarak-atrofga tez moslashadi, voqea-hodisalarga reaksiyasi kuchli bo'ladi. Odatda, sangvinik gapdon odam, har qanday inson bilan muloqotga oson kirishib ketadi va suhbat paytida quvnoq mimikani ko'p ishga soladi. O'ziga yoqqan ishga osongina berilib ketsa-da, muntazam davom etuvchi ishlarda qovun tushirib qo'yadi. Sangvinikni kuldirish oson. Sangvinik kuchli tipga kiradi. Flegmatik – vazmin, bosiq, kamharakat va hissiyotini jilovlab tura oladigan odam. Flegmatik odatda kamgap bo'lib, har qanday ishni shoshmasdan boshlaydi, biroq oxiriga etkazib qo'yadi, murakkab yoki janjalli vaziyatlarda ortiqcha hissiyotga berilmaydi. Agar sangvinik tez yonib, tez so'nadigan alangaga o'xshasa, flegmatik sekin olov olib, uzoq yonadigan alangadir. Tez javob berish zarur bo'lgan vaziyatlarda flegmatik ko'pincha vaqtni boy berib qo'yadi. Bunda sangvinik ustun keladi. Qat'iylik, iroda va sabr-toqat talab qilinadigan ishlarda esa flegmatik ustun. Flegmatikni kuldirish ham, jahlini chiqarish ham qiyin. Flegmatik kuchli tipga kiradi. Xolerik – jizzaki, qiziqqon, chaqqon, beqaror, hissiy reaksiyaga boy odam. U juda harakatchan. Juda katta ish qobiliyatiga ega xolerik biror ishni qiziqib tez boshlaydi-yu, oxiriga etkazmay tez orada tashlab qo'yadi. Xolerik hech

qachon bir maromda ishlay olmaydi, goh g'ayrat bilan, goh imillab ishlaydi. Ehtiyotkorlik, matonat va chidam talab qilinadigan vaziyatlarda xolerik qiyin ahvolga tushib qoladi. Xolerikning jahlini chiqarish juda oson. Xolerik ham kuchli tipga kiradi. Melanxolik – g'amgin, zaif, yig'loqi va jur'atsiz odam. U salga xafa bo'ladi, jiddiyroq ishlarga jur'at etolmaydi, o'z fikriga ega emas. Melanxolik arzimagan qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydi, ularga qarshi kurashdan voz kechadi. Sangvinik va flegmatik esa qiyinchiliklarni oson engishadi, xolerik esa ularni hatto yo'q qilib yuboradi. Melanxolikda ijobiy his-tuyg'udan salbiy his-tuyg'ular ustunlik qiladi. Baxtli voqealarga qaraganda, noxush voqealar ularga ko'proq ta'sir qiladi. Shuning uchun ham melanxolik doimo tushkun kayfiyatda yuradi. Melanxolik – temperamentning kuchsiz tipi.

Xarakter — bu insonning doimiy xulq-atvori, odatlari va ijtimoiy-madaniy fazilatlari majmui bo'lib, uning harakatlari, qarorlari va boshqalar bilan munosabatlarini belgilaydi. Xarakter (yunoncha charaktir – belgi, ajratuvchi sifat, xislat) – ijtimoiy muhitda tarkib topadigan, shaxsning tevarak-atrofdagi voqelikda va o'z-o'ziga munosabatlarida ifodalanadigan, uning muayyan vaziyat va sharoitda namoyon bo'luvchi xatti-harakatlarini belgilab beradigan barqaror, turg'un ruhiy xususiyatlarining majmuasi. Xarakter xususiyatlari kelib chiqishining fiziologik sharoitlaridan biri – bu ko'chish mexanizmi asosida turli dinamik stereotiplarning hosil bo'lishidir. Temperament tipi xarakterning individual o'ziga xos xususiyatlarining paydo bo'lishidagi muhim psixologik sharoitlardan biri. Inson xarakterining ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liq, bir-biriga tobe yaxlit organizmi uning tuzilmasi (strukturasi) deyiladi. Ruhiy xususiyatlarning o'zaro bog'langan tizimi simptomokomplekslar yoki faktorlar deb ataladi. Xarakter xususiyatlarining 4 ta tizimi mavjud: 1) jamoaga, guruhga, ayrim insonga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqa); 2) mehnat faoliyatiga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lish va boshqa); 3) narsa va ashyolarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik yoki ifloslik, narsalarga ayab yoki ayamasdan yondashish va boshqa); 4) insonning o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (izzatnafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, dimog'dorlik, kamtarinlik va boshqa). Xarakter tuzilishining xususiyatlariga ularning chuqurlik darajasi; faolligi, kuchi; barqarorligi, o'zgarmasligi; ma'lum darajada plastikligi kabilar kiradi. Xarakterni tashkil qiluvchi xususiyatlar uning xislatlari deb nomlanib, ma'naviy va irodaviy turkumlardan iborat. Xususiyat tug'ma, o'zgarmaydigan bo'lmaydi, shuning uchun u insonning turmush sharoitiga bog'liq holda tarkib topib, o'zgaruvchan va tarbiyalanuvchandir. Modomiki shunday ekan, psixikaning individual sifat xususiyatlari shaxsning ijtimoiy tipik munosabatlari bilan birga qo'shilgandagina xarakter

xislatlarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xarakter irsiyat bilan bevosita aloqaga kirmaydi, chunki u ijtimoiy qonuniyatlar bilan belgilanadi. Xarakter bilan temperamentning o‘zaro munosabati ularning fiziologik asoslari bilan tavsiflanadi. Xarakterning shakllanishida bir necha turli psixologik mexanizmlar mavjud bo‘lib, ularning izida odatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, xarakter umumbashariy sifatlar bilan cheklanib qolmasdan, u milliy va etnopsixologik xususiyatlarga ham ega. Shu boisdan o‘zbeklarning o‘ziga xos milliy xarakter xislatlari mavjud. Istiqoldan keyin milliy ma’naviyat va qadriyatlarning tiklanishi tufayli xarakterning sof fazilatlarini barqarorlashib bormoqda. Xarakterning mohiyati, tuzilishi va turlarini psixologiyaning maxsus sohasi – xarakterologiya o‘rganadi. Xarakterning shakllanishi — bu insonning doimiy xulq-atvori, odatlari va ijtimoiy fazilatlarini qanday paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayonidir. Xarakter biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Xarakterning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar: 1. Biologik omillar: Tug‘ma temperament, nerv tizimi va irsiy xususiyatlar xarakterning asosini tashkil qiladi. Masalan, faol yoki sezgirlikka moyil bo‘lish biologik asosga ega bo‘lishi mumkin. 2. Psixologik omillar: Shaxsning tajribasi, his-tuyg‘ulari va individual xususiyatlari xarakterga ta’sir qiladi. O‘zini anglash, qaror qabul qilish, intilish va iroda muhim rol o‘ynaydi. 3. Ijtimoiy omillar: Tarbiya, ta’lim, oilaviy muhit va jamiyatdagi qoidalar xarakter shakllanishida katta ahamiyatga ega. Do‘stlar, ustozlar va jamiyatning qadriyatlari shaxsning axloqiy me’yorlarini belgilaydi. 4. Hayotiy tajriba: Qiyinchiliklar, muvaffaqiyatlar va ijtimoiy munosabatlar xakterni rivojlantiradi va mustahkamlaydi. Xarakter tug‘ma xususiyatlar (temperament) va o‘rganilgan fazilatlar (tarbiya, tajriba) uyg‘unligi natijasida shakllanadi. U insonning shaxsiyati va ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omildir.

Psixologiyada xarakter – bu shaxsning doimiy xulq-atvori, odatlari, ijtimoiy va shaxsiy faoliyatdagi barqaror xususiyatlar majmuasi bo‘lib, u shaxsiyatning ijtimoiy va biologik asoslarini aks ettiradi. Xarakter shaxsning temperament, iqtisodiy va ijtimoiy tajriba, axloqiy-me’naviy qadriyatlar hamda hissiy-motivatsion holatlar bilan chambarchas bog‘liq. Xarakter tarkibini olimlar quyidagi asosiy komponentlarga bo‘lishadi: 1. Irodaviy komponent (volitiv element). Bu insonning qaror qabul qilish va maqsad sari intilish qobiliyatini belgilaydi. Irodaviy komponent shaxsning motivatsion faoliyati, qiyinchiliklarga bardoshlilik, qat’iyatlilik va o‘zini boshqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Masalan, mehnatsevarlik, qat’iyatlilik, sabr-toqat – irodaviy komponentning ko‘rsatkichlaridir. 2. Axloqiy-moral component. Shaxsning o‘z xatti-harakatlarini axloqiy normalar va ijtimoiy me’yorlar asosida baholash qobiliyatini ifodalaydi. Bu komponent shaxsni jamiyatga moslashishga, adolat, halollik, sodiqlik kabi ijtimoiy qadriyatlarga intilishga yo‘naltiradi. Axloqiy-moral komponentning shakllanishi odatda tarbiya, ijtimoiy

muhit va madaniyat bilan bog'liq. 3. Emotsional-hissiy component Shaxsning his-tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy muhitga moslashish va hissiy reaksiyalarni tartibga solish imkonini beradi. Bu komponent quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi: mehribonlik, qo'rqqanlik, sabr-toqat, sabr, o'zini tutish. Emotsional komponent insonning ijtimoiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini va ruhiy barqarorligini belgilaydi. 4. Intellektual komponent. Bu element shaxsning fikrlash qobiliyati, bilimlarni qabul qilish va qo'llash, mantiqiy va analitik fikrlash, masalalarni hal etish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Intellektual komponentning rivojlanishi o'qish, tajriba va ijtimoiy interaktsiya bilan bog'liq bo'ladi. 5. Amaliy faoliyatga yo'naltirilgan komponent. Bu komponent shaxsning kundalik faoliyatdagi mas'uliyatlilik, tartiblilik, mehnatsevarlik, o'zini tashkil etish qobiliyati kabi xususiyatlarini aks ettiradi. Shaxsning amaliy faoliyatga bo'lgan yondashuvi uning ijodiy, mehnat va kasbiy faoliyati bilan bog'liq. Xarakter – bu insonning shaxsiyati va ijtimoiy moslashuvini belgilovchi kompleks psixologik tuzilma. Har bir komponent bir-birini to'ldiradi, shaxsni ijtimoiy, hissiy va intellektual jihatdan shakllantiradi. Xarakter shakllanishi biologik omillar, ijtimoiy tajriba va madaniyat ta'sirida davom etadi, shuningdek, tarbiya va o'z-o'zini rivojlantirish bilan mustahkamlanadi.

Xarakter haqidagi nazariyalar biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni o'zaro bog'laydi. Biologik nazariya – irsiy va temperament asosida. Psixologik nazariya – ichki motivatsiya, irodaviy va hissiy xususiyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy nazariya – tarbiya, madaniyat va jamiyat ta'sirini hisobga oladi. Xarakter shakllanishi bir nechta omillarning uyg'unligi orqali amalga oshadi. Xarakter haqidagi nazariyalar psixologiyada shaxsning xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlarini tushunishga qaratilgan ilmiy tushunchalardir. Turli olimlar xarakterni shakllanishi, tarkibi va rivojlanish jarayonini turlicha izohlashgan. Quyida asosiy nazariyalar keltiriladi: 1. Klassik psixologik nazariya (X. Ebbinghaus, F. Galton, K. Jung). Xarakter shaxsning doimiy xulq-atvori va psixologik xususiyatlar majmui deb qaraladi. F. Galton: xarakter va shaxsiy xususiyatlar biologik asosga ega, irsiy jihatdan uzluksiz uzatiladi. K. Jung: xarakter va temperament bir-biridan farq qiladi; temperament – biologik asos, xarakter – ijtimoiy tajriba va tarbiya mahsuli. 2. Irodaviy (volitiv) nazariya (V. I. Leontyev, A. N. Leontyev). Xarakterni insonning irodasi, maqsad sari intilishi va xulqini boshqarish qobiliyati bilan bog'laydi. Xarakterning asosiy vazifasi – shaxsni ijtimoiy muhitga moslashish va faoliyatini maqsadga yo'naltirish. Leontyev: xarakter va shaxsiy xususiyatlar faoliyat jarayonida shakllanadi, ijtimoiy muhit katta rol o'ynaydi. 3. Temperamentga asoslangan nazariya (G. Selye, I. P. Pavlov) Xarakterni temperament bilan chambarchas bog'laydi: temperament – insonning biologik asoslari, xarakter esa ijtimoiy tajriba va tarbiya natijasi. I. P. Pavlov: nerv tizimi xususiyatlari (aktivlik, reaksiya tezligi) xarakterning shakllanishiga ta'sir qiladi. G. Selye: stressga qarshi moslashuv va irodaviy

chidamlilik xarakterning muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi. 4. Davriy-his-tuyg‘ular nazariyasi (F. Allport). Xarakter shaxsning xulq-atvorini tashkil etuvchi barqaror ichki xususiyatlar majmui sifatida qaraladi. F. Allport: xarakter – individual xususiyatlar va motivatsiya tizimi, shaxsiy maqsadlar va qadriyatlarga asoslanadi. Bu nazariya shaxsning individual o‘ziga xosligini va ichki motivatsiyani ta’kidlaydi. Temperament va xarakter – shaxsiyatni shakllantiruvchi asosiy psixologik komponentlar bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi. Temperament – insonning biologik asoslangan, tug‘ma xususiyatlari bo‘lib, uning hissiy javob tezligi, faoliyati va ruhiy barqarorligini belgilaydi. Xarakter esa ijtimoiy tajriba, tarbiya va shaxsiy faoliyat natijasida shakllanadigan barqaror xulq-atvor va odatlar majmuasidir. Shaxsning muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvi temperament va xarakterning uyg‘un ishlashiga bog‘liq. Temperament insonning tabiiy potentsialini ko‘rsatadi, xarakter esa shu potentsialni maqsadli va ijtimoiy qabul qilinadigan tarzda yo‘naltiradi. Shunday qilib, temperament – shaxsning biologik “tempi”, xarakter esa uning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishini belgilovchi omildir. Umuman olganda, temperament va xarakter bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, shaxsning hissiy, irodaviy, axloqiy va ijtimoiy xususiyatlarini to‘liq aks ettiradi. Ularning uyg‘unligi shaxsning muvaffaqiyatli, barqaror va jamiyatga moslashgan inson sifatida rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova . Umumiy psixologiya/Darslik. Toshkent, “INOVATSIYA-ZIYO”. 2019, 360bet.
2. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
3. G‘oziyev E. G'. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent. 2002.
4. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T.:O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: Fan va texnologiyalar 2010 yil
6. M.Otajonov. Psixoanaliz asoslaril O`quv qo`lanma Toshkent —O`zbekiston 2004
7. Zarifboy Ubodullaev. Asab va ruhiyat Ilmiy- ommabob risola SHarq Nashriyot.Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriryati Toshkent-2015